

## IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA PUL-KREDIT SIYOSATINING O'RNI

**A.T.UMIROV**

Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasи dotsenti

*Xasanov Otobek*

TDIU 2-kurs talabasi MMT-78 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosatini olib borishda rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan tizimlarni tanishtirish va ularning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni shakllantirish zarur bo'lib qoladi. Ushbu maqolada pul-kredit siyosatining iqtisodiyotdagi o'rni va barqarorligini ta'minlash bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pul-kredit siyosati, milliy valyuta, inflyatsiya, valyuta kursi, monetary siyosat, qimmatli qog'ozlar bozori.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlar va bozor iqtisodiyotining tobora rivojlanib borayotgani, albatta, davlat iqtisodiyotida inflyatsiya darajalarini boshqarishda, pul massalarini nazoratda ushslash, bundan tashqari narx turg'unligi, iqtisodiy o'sish va to'liq ish bilan ta'minlash kabi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini qo'llashni talab etadi. Pul-kredit siyosati deganda mamlakat Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotda pul massasi, foiz stavkalari va kredit mavjudligini tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar tushuniladi. Ushbu siyosat narxlar barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni boshqarish orqali mamlakat iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Bularning barchasi har qanday hukumat uchun sog'lom farovon iqtisodiyotni yaratish uchun erishishi kerak bo'lgan muhim maqsadlardir.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra yuqori darajada tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar bozori, pul bozori xamda bank kredit va depozit operatsiyalari Markaziy bank transmission mexanizmi kanallari samaradorligining zaruriy sharti xisoblanadi.

O'zbekistonda Markaziy bank pul-kredit siyosati makroiqtisodiy siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy barqarorligini xamda mamlakat rivojlanishini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Jumladan ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan xolda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash ustuvor masalalardan biri sifatida belgilangan.[1]

Pul-kredit siyosatini rivojlantirishning hozirgi bosqichda zamonaviy pul-kredit instrumentlarini joriy etish, amaldagilarni takomillashtirish va ularning ta'sir maxanizmini mustahkamlash, shuningdek ichki iqtisodiy cheklovlarini bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ravishda e'tibor qaratilyapti. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va uning instrumentlari rolini kuchaytirish, bank tizimi likvidligini tahlil qilish va prognoz hamda pul bozoridagi operatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida 2018-2021 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasining maxsus texnik missiyalarini jalg qilish, xorijiy mamlakatlar markaziy banklari ilg'or tajribasini o'rganish va o'zaro tajriba almashish amaliyotini kengaytirish ko'zda tutildi. Bank nazoratini xalqaro amaliyot va andozalarga muvofiq holda takomillashtirilishi, bank tizimida raqobat muhitining kuchayishi hamda tijorat banklarining kredit siyosatida bozor mexanizmlarini keng qo'llashni davom ettirilishi, o'z navbatida, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va pu-kredit siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati rejimlarinig o'ziga xos jihatlari va ta'sirchanligi tahlili o'rta muddatli istiqbolda Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida narxlar barqarorligiga erishish vazifasiga inflatsion targetlash rejimi juda mos kelishini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tamoyil va usullarining inflatsion targetlashga bosqichma-bosqich yo'naltirish uchun zaruruiy huquqiy asoslar va tayanch iqtisodiy sharoitlar yaratildi[2]. O'zbekiston sharoitida mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyati 1994-yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilganidan so'ng paydo bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, so'nngi yillarda Respublikamizda pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minladi. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, iqtisodiyotda narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inflasiya darajasini 2023- yil yakuniga qadar 5% gacha pasaytirish maqsadlaridan kelib chiqilgan. Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida Markaziy bankning o'rta muddatli makroiqtisodiy rivojlanish proqnozlari va kelgusi yillarda pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan ishlar, tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar o'zgargan holatlarda Markaziy bank tomonidan ko'rildigan choralar va pul-kredit siyosatini yuritishdagi yondashuvlar aks ettirilgan.

Bank faoliyatini takomillashtirish, bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash masalalari bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining markazida turibdi. Bank tizimi milliy iqtisodiyot tizimining eng muhim elementidir. Banklar kredit vositachisi sifatida pul oqimlarini to'plash vaularni hududiy va tarmoq jihatlarida iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlash qobiliyatidan iborat bo'lgan aniq funktsiyalarni bajaradilar. Ushbu funktsiyalarni

amalga oshirish orqali banklar barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratildi:

- valyuta siyosatini erkinlashtirish;
- bank xizmatlari ommabopligrini oshirish;
- inflyatsion targetlash tartibiga bosqichma-bosqich o'tish;
- bank sektorini erkinlashtirish.

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Pul-kredit siyosati mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o'sishini ta'minlashda, milliy bank tizimidagi likvidlilik muammosini hal qilishda va inflatsiyani jilovlashda muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa, dunyoning ko'plab mamlakatlarida moliyaviy inqiroz davom etayotgan hozirgi sharoitda pul-kredit siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy o'shish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda eng avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflatsiya darajasini oshishiga yo'l qoymaslik hisoblanadi. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining baland ekanligi importning qimmatlanishiga olib kelishi mumkin va bu natijada investitsiya me'yorini pasayishida yuz berishi mumkin. O'z navbatida, investitsiya me'yorining pasayishi yuz berishi mumkin. Investitsiya me'yorining pasayishi yalpi ichki mahsulotning o'sish suratini pasayishiga va ayrim hollarda iqtisodiyotni retsessiya holatiga tushib qolishiga olib keladi. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida Markaziy bankning pul-kredit siyosati samaradorligi yanada oshirish mamlakatdagi pul bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Buning asosiy sababi, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari, qayta moliyalashtirish siyosati, hamda valyuta intervensiysi mos ravishda bevosita pul bozorining tarkibi hisoblangan qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari bozori bilan banklararo kreditlar bozori hamda valyuta bozorida amalga oshirilib boriladi. Aytish lozimki, Respublikamiz joriy valyuta bozorining likvidlilikni ta'minlashda Markaziy bankning monetar siyosati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu maqola iqtisodiy barqarorlik va o'sishga erishishda pul-kredit siyosatining roli va samaradorligini o'rganib chiqdi. Pul-kredit siyosatining muvaffaqiyatli moliya bozorining integratsiyalashuvi darajasiga, uy xo'jaliklari va firmalarning xatti-xarakatlariga bog'liq. Markaziy bank pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflyatsion targetlash rejimiga muvofiqlashtirish bo'yicha

ishlarni faol davom ettirib kelmoqda. Asosiy maqsad esa, ta'sirchan pul-kredit siyosatini yuritish orqali o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasini maqsadli ko'rsatkichga qadar pasaytirishdan iborat. Bunda, albatta pul-kredit siyosatining mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ham ortib boradi. Ushbu rejalarни amalga oshirish doirasida moliya sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish va kichik biznesni moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirishga ham asosiy e'tibor qaratish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.09.2017 yildagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-son Qarori.
2. Barinov E.A. Valyutno-kreditnie otnosheniya vo vneshney torgovle. — M.:Federativnaya Knigotorgovaya Kompaniya, 1998.- 272s.
3. Barinov E.A. Rinki: valyutnie i stennix bumagi. — M.: "Ekzamen ", 2001.-608 s.
4. Rashidov A. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING ORNI VA AHAMIYATI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
5. Xiao, K., Wang, Y., Whited, T. M., & Wu, Y. (2017). Market power and monetary policy transmission: Evidence from a structural estimation. Retrieved from <https://scihub.tw/https://papers.ssrn.com>
6. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish Konsepsiysi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>.
7. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalg qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 229-239.